

TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY AKTIVLARNI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Gadayev Boburjon Xasanovich

Mustaqil Izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22337939>

Annotatsiya

Mazkur tezisda tijorat banklarida moliyaviy aktivlarni shakllantirishning nazariy-iqtisodiy asoslari, ularning tarkibiy tuzilishi, bank faoliyatidagi funksional ahamiyati hamda ulardan samarali foydalanish masalalari kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Xususan, tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlar, qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar, banklararo joylashtirilgan mablag‘lar, Markaziy bankdagi mablag‘lar va boshqa daromad keltiruvchi moliyaviy vositalarning o‘rni tahlil qilingan. Bank aktivlarini shakllantirish jarayonida resurs bazasining barqarorligi, aktiv va majburiyatlar muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlik, kredit portfelining sifati, likvidlik darajasi va risklarni boshqarish mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqotda tijorat banklari moliyaviy aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda daromadlilik, likvidlik va risk o‘rtasidagi optimal nisbatni ta‘minlash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, aktivlar portfelini iqtisodiyot tarmoqlari, mijozlar segmentlari, muddatlar va moliyaviy instrumentlar kesimida diversifikatsiya qilish orqali kredit va bozor risklarini kamaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Muammoli kreditlar ulushini qisqartirish, kredit monitoringini kuchaytirish, yuqori likvid aktivlarning maqbul hajmini saqlash va investitsion operatsiyalarni kengaytirish tijorat banklari moliyaviy barqarorligining muhim shartlari sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, moliyaviy aktivlar, bank aktivlari, kredit portfeli, investitsiya portfeli, qimmatli qog‘ozlar, banklararo mablag‘lar, likvidlik, rentabellik, kredit riski, moliyaviy risk, aktivlarni diversifikatsiya qilish, aktiv va majburiyatlarni boshqarish, raqamli texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract

This thesis covers the theoretical and economic foundations of the formation of financial assets in commercial banks, their structural structure, functional significance in banking activities, and their effective use based on an integrated approach. In particular, the role of loans, investments in securities, interbank placements, funds in the Central Bank, and other income-generating financial instruments in the assets of commercial banks is analyzed. In the process of forming bank assets, special attention is paid to the stability of the resource base, the correspondence between the terms of assets and liabilities, the quality of the loan portfolio, the level of liquidity, and the importance of risk management mechanisms.

The study substantiates the need to ensure the optimal ratio between profitability, liquidity, and risk in increasing the efficiency of the use of financial assets of commercial banks. It also considers the possibilities of reducing credit and market risks by diversifying the asset portfolio across economic sectors, customer segments, maturities, and financial instruments. Reducing the share of problem loans, strengthening credit monitoring, maintaining an acceptable volume of highly liquid assets, and expanding investment operations are considered important conditions for the financial stability of commercial banks.

Keywords: commercial bank, financial assets, bank assets, loan portfolio, investment portfolio, securities, interbank funds, liquidity, profitability, credit risk, financial risk, asset diversification, asset and liability management, digital technologies, financial stability.

Kirish

Zamonaviy bank tizimida tijorat banklarining barqaror va samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning moliyaviy aktivlarini qay darajada to'g'ri shakllantirishi hamda mavjud resurslarni daromad keltiruvchi yo'nalishlarga oqilona joylashtirishiga bog'liq. Bank moliyaviy aktivlari bankning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy elementlardan biri hisoblanib, ular orqali kreditlash, investitsion faoliyat, hisob-kitob operatsiyalari va boshqa moliyaviy xizmatlar amalga oshiriladi.

Tijorat banklari jalb qilingan depozit mablag'lari, o'z kapitali, banklararo resurslar va boshqa moliyaviy manbalarni turli aktiv operatsiyalariga joylashtiradi. Mazkur aktivlarning sifati va tarkibi bank daromadlilik, likvidligi, kapital yetarliligi hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli bank aktivlarini faqat hajm jihatidan ko'paytirish emas, balki ularning sifatini oshirish, risklilik darajasini pasaytirish, daromad keltiruvchi va yuqori likvid aktivlar o'rtasida optimal nisbatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarining moliyaviy aktivlari bank faoliyatining asosiy iqtisodiy bazasini shakllantiradi. Bank tomonidan jalb qilingan depozitlar, banklararo resurslar, o'z kapitali va boshqa moliyalashtirish manbalarining qay darajada samarali aktivlarga joylashtirilishi uning daromadlilik, likvidligi va moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Shu sababli tijorat banklarida moliyaviy aktivlarni shakllantirish jarayoni oddiy resurslarni joylashtirish amaliyoti emas, balki daromadlilik, risk va likvidlik o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv jarayoni hisoblanadi.

Bank aktivlari tarkibida mijozlarga ajratilgan kreditlar, boshqa banklarda joylashtirilgan mablag'lar, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar, Markaziy bankdagi mablag'lar, naqd pul vositalari hamda boshqa moliyaviy talablar alohida o'rin tutadi. Ularning har biri bank faoliyatida turli iqtisodiy vazifani bajaradi. Kreditlar yuqori daromad olish imkonini beradigan asosiy aktiv bo'lsa, likvid mablag'lar bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishiga xizmat qiladi. Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar esa daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va aktivlar portfelinin risk darajasini maqbullashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston bank tizimidagi so'nggi ko'rsatkichlar moliyaviy aktivlar hajmining barqaror o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatida bank tizimining jami aktivlari 852,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-iyul holatiga kelib ushbu ko'rsatkich 1 005,8 trln so'mga yetgan. Ya'ni bir yil davomida bank aktivlari qariyb 18,0 foizga oshgan. Shu davrda kreditlar hajmi 575,2 trln so'mdan 642,8 trln so'mga yoki 11,7 foizga, depozitlar esa 355,6 trln so'mdan 473,8 trln so'mga yoki 33,2 foizga ko'paygan.

1-jadval

O'zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2025-yil 1-iyul, trln so'm	2026-yil 1-iyul, trln so'm	O'sish, %
Jami aktivlar	852,2	1 005,8	18,0

Kreditlar	575,2	642,8	11,7
Depozitlar	355,6	473,8	33,2
Majburiyatlar	726,9	856,9	17,9
Kreditlarning depozitlarga nisbati	162%	136%	-26 foiz punkt

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, bank tizimi aktivlarining o‘sishi bilan bir qatorda resurs bazasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, depozitlarning 33 foizdan ortiq o‘sishi kreditlar o‘shir sur‘atidan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu banklarning kredit operatsiyalarini tobora ko‘proq ichki depozit resurslari hisobidan moliyalashtirish imkoniyati kengayayotganini anglatadi. 2025-yil 1-iyulda kreditlarning depozitlarga nisbati 162 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil 1-iyulda ushbu ko‘rsatkich 136 foizgacha pasaygan. Mazkur tendensiyaning bank tizimi resurs bazasining mustahkamlanishi va kreditlashni moliyalashtirish tarkibining nisbatan barqarorlashuvi sifatida baholash mumkin.

Bank moliyaviy aktivlari tarkibida kreditlarning yuqori ulushga ega ekanligi alohida e’tiborga loyiq. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatida kreditlar jami bank aktivlarining qariyb 67,5 foizini, 2026-yil 1-iyulda esa 63,9 foizini tashkil qilgan. Kreditlarning aktivlardagi ulushi biroz kamaygan bo‘lsa-da, ular bank tizimining eng yirik daromad keltiruvchi aktivlari bo‘lib qolmoqda. Bunday holat tijorat banklarining daromadlari ko‘p jihatdan kredit portfeli sifati va qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatiga bog‘liq ekanligini anglatadi.

Kreditlarning bank aktivlaridagi salmog‘ining yuqoriligi ikki tomonlama iqtisodiy ta’sirga ega. Bir tomondan, kredit operatsiyalarining kengayishi banklarning foizli daromadlarini oshiradi va iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy resurslar bilan ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan esa kredit portfelining haddan tashqari konsentratsiyasi kredit riskining oshishi, muammoli kreditlar shakllanishi va bank likvidligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli kredit portfelining hajmini oshirish bilan bir qatorda uning sifatini nazorat qilish ham tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega.

Moliyaviy aktivlardan samarali foydalanishda kredit portfelini diversifikatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bank kreditlari faqat bir yoki bir nechta yirik tarmoq, korxona yoki qarz oluvchiga yuqori darajada yo‘naltirilgan hollarda kredit riskining konsentratsiyasi yuzaga keladi. Mazkur xavfni kamaytirish uchun kredit portfelini sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, transport va boshqa tarmoqlar kesimida muvozanatli taqsimlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, yirik korporativ kreditlar bilan bir qatorda kichik biznes, chakana kreditlash va boshqa mijoz segmentlari ulushini ham optimal shakllantirish zarur.

Bank aktivlaridan foydalanish samaradorligi faqat kreditlarning hajmi bilan belgilanmaydi. Moliyaviy aktivlarning muhim qismini yuqori likvid aktivlar tashkil etishi kerak. Tijorat banki mijozlarning depozitlarni qaytarib olish talablari, banklararo hisob-kitoblar va boshqa qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun yetarli likvid aktivlarga ega bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, bank aktivlarining haddan tashqari katta qismini daromadlilik past bo‘lgan likvid vositalarda saqlash ham umumiy rentabellikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun likvidlik darajasini maksimal emas, balki optimal darajada shakllantirish talab etiladi.

Tahlillar davlat ulushi mavjud banklar va boshqa tijorat banklari o'rtasida aktivlar hamda resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarida ma'lum tafovut mavjudligini ham ko'rsatadi. 2026-yil 1-iyul holatida davlat ulushi mavjud banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati 171 foiz, boshqa banklarda esa 97 foizni tashkil etgan. Bu davlat ulushi mavjud banklarda kredit portfeli hajmining depozit bazasiga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda resurs manbalarini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli depozitlar hajmini oshirish va kreditlash o'sishini barqaror moliyalashtirish manbalari bilan muvofiqlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, banklarning moliyaviy aktivlari tarkibida investitsion aktivlar ulushini oqilona oshirish ham muhimdir. Davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalarga investitsiya kiritish bank uchun kreditlardan tashqari qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, aktivlar portfelinin diversifikatsiyasini ta'minlab, bitta faoliyat turiga bog'liqlikni kamaytiradi. Ayniqsa, davlat qimmatli qog'ozlari likvidligi va nisbatan past kredit riski bilan ajralib turishi sababli bankning likvid aktivlari portfelinin boshqarishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Bank aktivlaridan samarali foydalanishni baholashda aktivlar rentabelligi (ROA) muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich bankning mavjud aktivlari hisobidan qanchalik darajada sof foyda yaratayotganini ifodalaydi. Aktivlar hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi har doim ham samaradorlikning oshirishini anglatmaydi. Agar aktivlarning o'sishi bilan bir vaqtda ularning daromadlilik pasaysa yoki muammoli kreditlar ko'payib borsa, bankning umumiy moliyaviy natijalari yomonlashishi mumkin. Shu sababli tijorat banklari aktivlar hajmini ko'paytirishdan ko'ra, ularning sifatli va daromadli bo'lishiga ustuvor ahamiyat berishi lozim.

Moliyaviy aktivlarni boshqarishda aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o'rtasidagi mutanosiblik ham katta ahamiyatga ega. Bank qisqa muddatli depozitlarni jalb qilib, ularni uzoq muddatli kreditlarga joylashtirganda muddatlar nomuvofiqligi yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitda bankning kredit portfeli daromad keltirayotgan bo'lsa-da, qisqa muddatli likvidlik muammosi paydo bo'lish ehtimoli ortadi. Shu sababli aktiv va majburiyatlarni boshqarish tizimi – Asset-Liability Management (ALM) tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida moliyaviy aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishda faqat aktivlar tarkibini o'zgartirish yetarli emas. Kreditlarni ajratishdan oldingi tahlil, kreditdan keyingi monitoring, qarz oluvchining moliyaviy holatini baholash va muammoli aktivlarni erta aniqlash tizimlarini ham rivojlantirish talab etiladi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan kredit skoringi, Big Data tahlili va sun'iy intellekt asosidagi modellar mijozning kreditga layoqatliligini aniqroq baholash, kredit riskini prognozlash hamda qaror qabul qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish bank aktivlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Masalan, kredit portfelinin tarmoqlar, hududlar, muddatlar, valyutalar va risk toifalari bo'yicha o'zgarishini avtomatik nazorat qilish bank menejmentiga risklar kritik darajaga yetishidan oldin tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Natijada muammoli kreditlar yuzaga kelish ehtimoli kamayadi va aktivlar sifati yaxshilanadi.

O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy aktivlar hajmi sezilarli kengayayotganini ko'rsatmoqda. 2026-yil 1-iyul holatiga bank tizimi aktivlarining 1 kvadrillion so'mlik

chegaradan oshgani bank sektorining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik roli kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, depozitlarning kreditlarga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi resurs bazasining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tijorat banklarida moliyaviy aktivlardan samarali foydalanishning asosiy sharti aktivlar hajmini shunchaki ko'paytirish emas, balki daromadlilik – likvidlik – risk – aktivlar sifati o'rtasida optimal nisbatni ta'minlashdan iborat. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish, investitsion faoliyatni rivojlantirish, barqaror depozit bazasini shakllantirish va zamonaviy risk-boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish banklarning moliyaviy barqarorligi hamda uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tijorat banklarining moliyaviy aktivlari ularning daromadlilik, likvidligi, moliyaviy barqarorligi va bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Bank faoliyatida moliyaviy aktivlarni to'g'ri shakllantirish nafaqat daromad olish imkoniyatini kengaytiradi, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish, risklarni nazorat qilish va mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishni ta'minlaydi.

Shuningdek, bank aktivlaridan samarali foydalanish jarayonida faqat yuqori daromadlilikka intilish yetarli emas. Banklar daromadlilik, likvidlik va risk o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlashi zarur. Yuqori likvid aktivlar bankning qisqa muddatli to'lov qobiliyatini mustahkamlasa, kreditlar va investitsiyalar bank uchun asosiy daromad manbalarini shakllantiradi. Shu bois moliyaviy aktivlar portfelini muvozanatli shakllantirish bank boshqaruvining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari depozit bazasini mustahkamlash ham moliyaviy aktivlardan samarali foydalanishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi. Barqaror va uzoq muddatli resurslarning kengayishi banklarga uzoq muddatli kredit va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkonini beradi. Aktiv va majburiyatlar muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirish esa likvidlik risklarini sezilarli darajada pasaytiradi.

Tijorat banklari moliyaviy aktivlarining samaradorligini oshirishda qimmatli qog'ozlar va boshqa investitsiya instrumentlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish ham maqsadga muvofiq. Bu kredit operatsiyalariga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytiradi, bank daromadlarini diversifikatsiya qiladi va aktivlar portfelining risk darajasini maqbullashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan kredit skoringi, Big Data va sun'iy intellekt asosidagi risklarni baholash modellarini joriy etish bank aktivlarini boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Ushbu texnologiyalar orqali kredit risklarini erta aniqlash, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini aniqroq baholash va muammoli aktivlar shakllanishining oldini olish imkoniyatlari kengayadi.

Tijorat banklarida moliyaviy aktivlarni oqilona shakllantirish va ulardan samarali foydalanish bank tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Aktivlar sifati va rentabelligini oshirish, likvidlikni mustahkamlash hamda risklarni samarali boshqarish tijorat banklarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiyotning real sektorini barqaror moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi (2019) *“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni*. O'RQ-580-son, 5 noyabr 2019 yil. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi (2019) *“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun*. O'RQ-582-son, 11 noyabr 2019 yil. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2019) *Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga sharh*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
4. World Bank (2025) *Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment 2025*. Washington, DC: World Bank Group.
5. Caruso, E. and Balaikiene, E. (2025) *Uzbekistan – Financial Sector Assessment Program: Detailed Assessment of Observance – Basel Core Principles for Effective Banking Supervision*. Washington, DC: World Bank Group.
6. Basel Committee on Banking Supervision (2025) *Principles for the Management of Credit Risk*. Basel: Bank for International Settlements.
7. Basel Committee on Banking Supervision (2024) *Interest Rate Risk in the Banking Book*. Basel Framework, SRP31. Basel: Bank for International Settlements.
8. Basel Committee on Banking Supervision (2026) *Problem Assets and Provisions: Problem Assets and Expected Credit Losses*. Basel: Bank for International Settlements.
9. Basel Committee on Banking Supervision (2023) *Large Exposures Framework*. Basel: Bank for International Settlements.